

“Alisher Navoiy Va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralar” ko’rgazmasi ochildi

Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyida “Alisher Navoiy Va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralar” ko’rgazmasi ochildi.



Ko’rgazma Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud sanalariga bag’ishlangan bo’lib, unda “Alisher Navoiy asarlari” va “Boburnoma”ga ishlangan miniatyuralarning fotonushalari namoyish etilgan. Ko’rgazmaning asosiy maqsadi jahon sanati taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan Temuriylar davri miniatyura va kitobat sanatini Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga ishlangan noyob namunalar orqali keng jamoatchilikka namoyish etishdir.



